



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



VETERINARIYA YO‘NALISHIDAGI TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Kenjaboev Shokir Abdulxalimovich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali “O‘zbek va xorijiy tillar”
kafedrasi mudiri dotsenti.
Email: shokir29111962@mail.ru
Tel: +998915865962*

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tezkor samarali strategiyalarni aniqlashda shuningdek, ingliz tili asosida veterinariya talabalarining kasbiy mahoratlarini oshirish usullarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada hozirgi kunda ta’lim jarayonida veterinariya mutaxsisiligi talabalariga ingliz tili o‘qitishda pedtexnologiyalardan foydalanish va darslarning samarali natija berishi uchun o‘qituvchining talabalarni qay darajada darsga qiziqtira olishiga va ularni bilim olishga bog‘liq masalalar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Veterinariya atamalar, innovatsiyon texnologiya, yondashuv an‘anaviy metod, zamaonaviy metod, pedtexnologiyalar, kompitensiya, axborot komunikatsiya texnologiyalari, uzlucksiz ta’lim, nutq kompitensiyasi, vosita, didaktika, dastur, kompyuter, elektron aloqa, jarayon, loyiha, imkoniyat.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida jamiyatni rivojlantirishning ko‘plab sohalarida, shu jumladan, oliy ta’lim sohasida katta o‘zgarishlar yuz bermoqda. Jamiyatni axborotlashtirish va globallashuv sharoitida uni o‘rganishga yangicha talablar qo‘yilmoqda, bilim olish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda, ayniqsa xorij tillarini xususan ingliz tilini o‘qitishda yangicha yondashuvlar paydo bo‘lmoqda. Shu ma’noda, talabalarga ingliz tilini o‘qitishda ijtimoiy mediadan foydalanishda yangi bilim olish va o‘zlashtirilgan bilimlarni takomillashtirish uchun foydalanish imkoniyatlari cheksizdir.

Jahon miqyosida shu jumladan mamlakatimizda ham ta’lim tizimida o‘qitishni zamonaviy talablar va yangi strategiyalarga moslashtirish, ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida veterinariya meditsinasi yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarda ingliz tilini bilish va kasbiy faoliyatida foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantirish, bunda mustaqil ta’lim jarayonini izchillashtirish, kasbiy faoliyatga aloqador yo‘nalishlar doirasida rivojlantirish, sohalarda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning mazmuni va ilmiy-metodik bazasini mustahkamlash yo‘nalishidagi tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan veterinariya meditsinasi yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarda ham ingliz tilini o‘zlashtirish borasida mustaqil ta’lim olish kompetensiyalarini yuksaltirishning o‘ziga xos jihatlari va ingliz tilini o‘qitishningning motivatsion xususiyatlari va





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



texnologiyalarini takomillashtirish zaruriyati mavjud.

Xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida zamonaviy ta’limni tashkil etish, ushbu jarayonga samarali metodologik uslublarni joriy etish, ingliz tilini o‘rganishda talabaga mustaqil ta’limga nisbatan ehtiyojni oshirish, uni qondirish muammolari va ularning yechimi borasidagi masalalar bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda Respublikamizda ta’lim tizimini davr talablaridan kelib chiqqan holda olib borilishi, iste’molchining ehtiyojlaridan kelib chiqib uzlusiz ta’limni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki ta’lim tizimiga joriy etilayotgan ta’limning yangi, ilg‘or jahon andozalariga asoslangan zamonaviy konsepsiysi yurtimizda qadim-qadimdan targ‘ib qilib kelinngan «Beshikdan to qabrgacha ilm izla» degan qoidani o‘zida mujassam etib, sifatli ta’lim tizimini yaratish borasida davlatimiz tomonidan amaliy ishlar olib borilmoqda.

Faqat sifatli ta’limgina professional malakali mutaxassislarni, ijodiy, kreativ fikrlaydigan, mas’uliyatli, chaqqon, o‘z sohasining yetuk mutaxassis, kasbini yanada yuqori natijalarga erishishiga harakat qiladigan xodimlarni yarata oladi. Bugun bizning zamonaviy oliy ta’lim tizimimizda olib borilayotgan ishlar shunisi bilan diqqatga sazovorki, u tor sohalarga yo‘naltirilgan mutaxassislarni tayyorlashdan voz kechib, doimiy o‘z ustida ishlaydigan, zamonaviy bilimlarni o‘zlashtiradigan, bilim, ko‘nikma va malakalarini zamonaviy bilimlar bilan boyitib boradigan, ijodiy faollik ko‘rsata oladigan, tashabbuskor, to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga layoqatli bo‘lgan kadrlarni tayyorlashga yo‘naltirilganligi bilan alohida ajralib turadi. Ushbu vazifalarning yechimi talabalarning professional ta’lim davrida shakllantiriladigan kreativ fikrlay oladigan yoshlarni tarbiyalashning asosi bo‘lgan o‘quv-professional ishlarining yuqori darajada tashkil etilishiga imkon yaratadi.

Talabalarda mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarining shakllantirilishi va rivojlantirilishi masalasi bugungi kun ta’lim tizimining eng muhim va ajralmas qismi sifatida shakllanib ulgurdi. Ayniqsa, ma’lum bir fan tarmog‘ini chuqur egallah yoki xorijiy tillarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq ta’lim jarayonlarida talabalarda mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini rivojlantirish masalasini hal qilish, uning yechimi doirasida yangi metodologik va mental xususiyatlarni hisobga olish, pedagog va talaba o‘rtasida ta’limning yangi shakllari va bilim olishning innovatsion texnologiyalarini tatbiq qilish bugungi kun oliy ta’lim tizimining eng muhim metodologik asosi bo‘lib qolaveradi.

Talabalarga ingliz tilini o‘rgatishni takomillashtirishda integrativ yondashuv kompetensiya, kompetentlik tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, talabalarda kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning muhim omili sifatida ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy yondashuv xorijiy tillardan egallangan bilim, ko‘nikma, malakalarni amalda qo‘llash layoqatini shakllantirishni bildirsa, integrativ yondashuv esa, kasb, soha yuzasidan egallagan bilim, ko‘nikma, malakalarni bирgalikda, aloqadorlikda qo‘llashni anglatadi. Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o‘qitishni tashkil etish fanlararo aloqalarni kuchaytirishga, talabalarning





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



turli fanlardan kerakli ma'lumotlarni olish va mavzularga oid axborotlarni to'plash, ulardan nutqiy vaziyatga mos holda foydalanish kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradi. Bunda ingliz tilini o'qitishda nutq faoliyatining rivojlantirib borilishi nihoyatda muhim bo'lib, talabalarning o'z faoliyatida turli fanlardan egallagan bilimlarini nutq faoliyati turlarining to'rt turi – tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozishda qo'llay olish malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Bugungi kunda ko'plab universitetlar, til markazlari, o'qituvchilarning ijtimoiy tarmoqlarda o'zlarining sahifalari mayjud bo'lib, akademik guruhlarda o'zlarining internet jamoalarini tashkil qilib, unda ko'plab o'qituvchilar o'z guruhlarining a'zolari bilan muloqot qiladilar va ma'lumot almashadilar. Shu asosda ular o'zlarini ta'lim beradigan talabalariga o'qib o'rghanishlari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yuklash uchun ijtimoiy media (telegramm, instagramm, vatsapp va x.k) dan foydalanishlari tobora rivojlanib bormoqda. Ijtimoiy mediadan foydalanish salohiyati va xususiyatlari, avvalambor, ular o'rtasida ma'lumot tarqatish va qabul qilish imkoniyatining tezligi bilan bog'liq bo'lib, ulardan ta'lim maqsadlarida foydalanish auditoriyadan tashqarida ham dars mashg'ulotlarini o'tkazish imkoniyatini beradi, bu esa talabalarni qo'shimcha ravishda rag'batlantiradi va ularni mustaqil ishlashlari uchun motivatsiya beradi.

Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimining vazifasi madaniyatlararo aloqa samaradorligini va ko'p madaniyatli shaxsning shakllanishini ta'minlashdir. Bu boradagi muhim omil - xorijiy tilni bilishdir. Bu jarayonda zamonaviy ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish natijaga erishishning o'ziga xos turi deb aytishimiz mumkin. Ushbu tadqiqotimizda zamonaviy ijtimoiy media talabalarga ingliz tilini o'qitishning qo'shimcha vositasi sifatida qaraldi. Veterinariya sohasi yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga ingliz tilini o'rgatish jarayonida ularning kasbiy faoliyati uchun asos bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalari bilim olishning muhim vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Lekin, ingliz tilini o'qitishning qo'shimcha vositasi sifatida ijtimoiy media va zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish metodikasi ilmiy va uslubiy adabiyotlarda yetarli darajada yoritib berilmagan.

Ushbu tadqiqotning mavzusi ham veterinariya yo'nalishidagi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ingliz tilini o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish va ingliz tilini talabalarga o'rgatishda ta'lim imkoniyatlari va ularda kasbiy axborot kompetensiyasini shakllantirish masalasidir. Mamlakatimizda ta'lim mavzusidagi istiqbol strategiyasi 2030-yillarga mo'ljallangan bo'lib, uning asosiy maqsadi yoshlarga xorijiy tillarni o'qitish, ingliz tilini nofilologik yo'nalishlarda o'rgatishga bo'lgan o'zgaruvshan ehtiyojlar va yangi O'zbekiston jamiyati va iqtisodiyotini rivojlantirishning uzoq muddatli maqsadlariga muvofiq oliy kasbiy ta'limining yuqori sifatini ta'minlashdir.

Ushbu tadbirlar doirasida veterinariya yo'nalishlardagi oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi uchun xorijiy tillarini bilish o'zining tanlagan sohasidagi zaruriy vakolatlarni belgilaydigan oliy ta'limning standartlari qabul qilingan.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



O‘qituvchi talabalarning bilimlarini masofadan turib qulay vaqtda, auditoriyaning mavjud yoki yo‘qligidan qat’i nazar, ma’lum bir guruh uchun o‘quv jarayonini individual ravishda tashkil qilishi mumkin. Bundan tashqari, muhim axborot kommunikatsion texnologiyalar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tomonidan ishlab chiqilgan axborot resurslaridan foydalangan holda talabalarga kerakli bilimlarni olish imkoniyatini berishdir. Shubhasiz, internet-resurslardan foydalanish imkoniyatlari nihoyatda katta. Global internet tarmog‘i foydalanuvchilar joylashuvidan qat’i nazar zarur ma’lumotlarni olish uchun sharoit yaratadi ta’lim jarayonining xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitishning uslubiy rivojlanishi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada o‘rganilmaganligi ushbu tadqiqotda ko‘tarilgan masalalarning dolzarbligini yanada oshiradi. Ijtimoiy media tarmoqlari va zamonaviy ta’lim texnologiyalari ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, shu jumladan xorijiy tillarni o‘qitish jarayoniga ham kirib bordi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini zamonaviy modernizatsiya qilish, o‘qitishning veterinariya yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga ingliz tilini o‘rgatish tamoyillari va yondashuvlarida sezilarli o‘zgarishlarni nazarda tutadi. Oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari oldida axborot bilan ishlash uslublariga ega bo‘lgan va o‘z intellektual, ijodiy salohiyatini saqlash hamda rivojlantirish uchun axborot texnologiyalaridan yetarli darajada foydalana oladigan mutaxassislarni tayyorlash vazifasi turibdi.

Talabalarda ingliz tili bo‘yicha kasbiy axborot kompetensiyasini shakllantirish muloqotning umumiyligi didaktik prinsiplari, kasbiy yo‘nalish va axborot kompetensiyasining o‘ziga xos uslubiy prinsiplariga asoslanadi, bu veterinariya yo‘nalishdagi talabalarga ingliz tilini o‘rgatish paytida ijtimoiy media tarmoqlaridan foydalanishni o‘z ishiga oladi.

Kasbiy faoliyatda ishlataladigan nutq faoliyat turlariga integrativ yondashuv kommunikativ kompetensiyani tezlashtirishga va rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayonda o‘qituvchilardan ham, talabalardan ham yuqori interfaol bo‘lish talab etiladi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun tadqiqotchilar va olimlar tomonidan turli zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ko‘plab mashqlar tavsiya qilingan va ulardan foydalanish yo‘llari ko‘rsatilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги ПҚ-5117-сонли “Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишини оммалаштириши фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиши чора-тадбирлари тўзгрисида” ги қарори

2. ¹ Ковалева А.Г. *Обучение иностранному языку в условиях информационно-коммуникационной профессиональнообразовательной среды // Язык в сфере профессиональной коммуникации: Часть 2: Материалы международной научнопрактической конференции преподавателей, аспирантов и студентов, 19-20 апреля 2018 года. — Екатеринбург: Издательство УМЦ-УПИ, 2018. — С. 57–62*





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



3. ¹ Родионова Н.В., Яранская М.Н. Потенциальные возможности использования социальных сетей в качестве образовательного ресурса // Сб. материалов Всероссийской студенческой научно-практической конференции «Научное сообщество студентов: проблемы художественного и музыкального образования». — Чебоксары: Чувашский государственный педагогический университет им. И.Я.Яковлева. — 2017. — С. 66–69.
4. Сайдадаҳмедов Н. Яңги педагогик технологиялар. – Тошкент: Молия, 2003.
5. Беспалко В. П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М. : Изд-во Института профессионального образования Министерства образования России, 1995.

